



TRANSCHEGARAVIY KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Primov Baxtiyor Olim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya
va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida o'qituvchisi, yu.f.f.n

E-mail: baxtiyorprimov@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401743>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-May 2024 yil

Ma'qullandi: 25-May 2024 yil

Nashr qilindi: 31-May 2024 yil

KEYWORDS

*transchegaraviy kiberjinoyat,
ekstraditsiya, internet, virus,
konvensiya, ekspertiza, raqamli
dalil, xalqaro shartnoma,
blokcheyn.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda hududiylik, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda ekstraditsiya masalalari, Xalqaro hamkorlikda dalillar maqbulligi masalalari tahlil etilgan. Shu asnoda, xalqaro konvensiyalarda ekstraditsiya qilish masalalaridagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish, davlatlarning o'zaro hamkorlik qilishdagi amal qilishlari lozim bo'lgan qonun qoidalarga qanday rioya qilish lozimligi muhokama qilingan. Tadqiqot natijasiga ko'ra xorijiy davlatlar tajribasining ijobiy jihatlarini qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalalari hamda milliy qonunchiligimizni takomillashtirishga qaratilgan tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

Kiberjinoyatlarni tergov qilishning asosiy muammolaridan biri shundaki, tergovchilar hatto jinoyatchilarni topishga muvaffaq bo'lganda ham, ular boshqa davlat hududida, ya'ni boshqa yurisdiksiyada bo'lganligi sababli qamoqqa olish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Yurisdiksiya masalasi kiberjinoyatlarni tergov qilish va unga qarshi kurash yo'lidagi eng katta muammolardan biridir.

Uzoq vaqt davomida va yuqori darajadagi tekshiruvlar natijasi kiberjinoyatchilarning boshqa bir xorijiy davlatda joylashganligini ko'rsatishva ularni javobgarlikka tortishning yagona yo'li bu chet el huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlik qilishdir. Kiberjinoyatlar – transchegaraviy jinoyatlar hisoblanadi va yurisdiksiya masalasini hal qilish, davlatlardan o'zlarining milliy qonunchiligini uyg'unlashtirish va butun dunyo bo'ylab huquqni muhofaza qilish idoralari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ustida bosh qotirishni talab qiladi. Darhaqiqat, Interpol (Xalqaro Politsiya Kuchlari) jinoyatchilikka, jumladan kiberjinoyatlarga qarshi xalqaro hamkorlik rejasiga ega bo'lib, unga ko'pchilik davlatlar qo'shilgan.

Kiberjinoyatchilikda yurisdiksiya muammosining so'nggi misollaridan biri "Love Bug" virusi bilan bog'liq. Dunyo bo'ylab milliardlab zarar keltirgan ushbu virus Filippin fuqarosi tomonidan yaratilgan va ishga tushirilgan. Mazkur shaxsning xatti-harakatlari Filippin tergovchilari tomonidan aniqlangan, ammo uning qilmishida Filippinning mavjud moddiy qonunchiligini buzish holati yo'qligi sababli javobgarlikka torta olishmadi. Negaki, Filippinning hakerlik uchun jazo belgilangan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni "Love Bug" virusi Internetda paydo bo'lganidan keyin kuchga kirgan. Shunday qilib, ushbu shaxsning

xatti-harakati virus zarar etkazgan boshqa mamlakatlarda javobgarlikka sabab bo'lgan bo'lsa-da, faqat mazkur shaxs Filippin davlati yurisdiksiyada bo'lganligi sababli, xorij huquq-tartibot idoralari unga nisbatan qidiruv e'lon qilish va jinoiy javobgarlikka tortish masalasini hal eta olmadilar. Hozirgi vaqtda ko'pgina mamlakatlar o'zlarining jinoiy qonunchiligini yangiladilar va raqamli jinoyatlarni jazolanadigan jinoyat sifatida o'z qonunchiligiga kiritib qo'ydilar.

Ikki tomonlama jinoyat prinsipiga asosan "Qo'shaloq jinoyat" - xalqaro yurisdiksiya masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xalqaro huquq tushunchasi hisoblanadi. Ekstraditsiya to'g'risidagi shartnomalar shaxsni ekstraditsiya qilish uchun "ikki tomonlama jinoiylikni" talab qiladi, ya'ni shaxsning qilmishi jinoyat sodir etilgan yurisdiksiyada hamda jinoyatchini ekstraditsiya qilishni talab qilayotgan yurisdiksiyada jinoyat deb hisoblanishi lozim. Yuqorida aytib o'tilgan "Love Bug" virusi misolida, 20 mamlakatda millionlab kompyuter foydalanuvchilariga zarar yetkazgan va milliardlab dollar zarar keltirgan, hakerni jazolanishi mumkin bo'lgan boshqa mamlakatga ekstraditsiya qilish mumkin emas edi, chunki virus ishga tushirilgan vaqtda, bu kabi xatti-harakat Filippin qonunchiligiga muvofiq jinoyat deb hisoblanmagan.

Amaldagi xalqaro normalarga ko'ra, yurisdiksiyaning huquqiy tushunchasi hududni ma'nosini o'z ichiga oladi, bunda bir mamlakat yurisdiksiya doirasi uning hududiy chegaralari chegaralari bilan belgilanadi. Yurisdiksiyaning ushbu hududiy tushunchasi kiberjinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun samarasiz. Kiberjinoyat qayerda sodir etilganligini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin, chunki jinoyatchi va jabrlanuvchi turli mamlakatlarda joylashgan bo'lishi hamda jinoyatchi jabrlanuvchiga hujum qilish jarayonida bir necha mamlakatlar kompyuter tizimlaridan foydalanishi mumkin. Mamlakatlar yurisdiksiyasining hududiy tushunchasini iloji boricha kengaytirish orqali kiberjinoyatlarda yurisdiksiya masalalarini qisman hal qilish mumkin. Masalan, kiberjinoyatlarga qarshi kurashda umumiy yurisdiksiyaga ega davlatlar hududida jinoyat sodir etilganda yoki jinoyatning biron bir qismi sodir etilganda kiberjinoyatchi o'sha mamlakatning o'zida jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Kiberjinoyatlar transmilliy bo'lganligi sababli, davlatlar kiberjinoyatlarning paydo bo'layotgan turlarini jinoyat deb topuvchi qonunlarni qabul qilishlari kerak. Masalan, "Love Bug" virusini oladigan bo'lsak, agar Filippinda virus tarqalayotgan paytda hakerlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi qonun bo'lganida, uning yaratuvchisi jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin edi. Jinoiy qonunlarni uyg'unlashtirish kiberjinoyatchilarning o'zlarining xatti-harakatlari jazosiz qolishi xayolotidan qochishga yordam beradi.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurashning yana bir muhim taktikasi - bu butun dunyo bo'ylab huquqni muhofaza qilish idoralari muhim dalillarni olish, saqlash va transportirovka qilish, jinoyatchilarni kuzatish hamda ushlab uchun tezkor hamkorlik qilishlarini ta'minlashdir.

Hozirgacha yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishishga ko'maklashish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan, Yevropa Kengashi tomonidan "Kiberjinoyat to'g'risida"gi konvensiya qabul qilindi. Ushbu Konvensiya ishtirokchilari kiberjinoyatlarning alohida turlarini ta'qiqlovchi qonunlarni qabul qilishga va ularning huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kiberjinoyatlarni tergov qilish hamda kiberjinoyatchilarni ta'qib qilishda boshqa mamlakatlar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan hamkorlik qilishlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qonunchilik yoki boshqa choralarni ko'rishga va'da berishadi [1].

Zamonaviy jinoyatchilikning o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, transmilliy jinoyatchilikni paydo bo'lishi, jinoyatchilarning turli mamlakatlarda yashirinishi bugungi kunda xalqaro hamjamiyatni tashvishga solishi tabiiy. Bunday sharoitda davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi kuchlarni birlashtirishi hamda hamkorlik qilish zarurati kelib chiqadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik munosabatlarining muhim yo'nalishlaridan biri – bu ekstraditsiya institutidir. Mazkur institut ham xalqaro hamda milliy darajada javobgarlik muqarrarligini ta'minlaydi. Ekstraditsiya instituti xalqaro huquq sohasining muhim institutlaridan biri bo'lib, uni tartibga soluvchi xalqaro huquq normalari bilan bir qatorda milliy huquq normalari ham rivojlanib kelmoqda. Bu esa, jinoyatchilikning o'sish darajasini va unga qarshi kurash ehtiyojini oshayotganligini ko'rsatadi [2].

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda, ushbu masala yuzasidan huquqshunoslar rang-barang mulohazalar bildirib o'tganliklarining guvohi bo'lish mumkin. Chunonchi, Hindistonlik olim Sunil Kumar Gupta (Sunil Kumar Gupta) ekstraditsiyani "xalqaro huquq normalariga muvofiq, bir davlat jinoyatchini boshqa davlatga jinoiy javobgarlikka tortish yoki jinoiy jazo qo'llash uchun ushlab berish jarayoni"[3], deb ta'riflaydi. R.M.Valeev esa, "... bu xalqaro shartnomalar, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariga hamda o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi hujjatlarga asoslangan, ayblanuvchi yoki mahkumni u hududida bo'lgan davlat tomonidan hududida jinoyat sodir etilganligi yoxud aybdor fuqarosi bo'lganligi yoki jinoyatdan jabr ko'rganligi bois ushlab berishni talab etayotgan davlatga jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish maqsadida berishi"[4], deya e'tirof etadi.

Yuridik adabiyotlarda shuningdek, ushbu institutni "jinoyat ishlari bo'yicha davlatlararo hamkorlikning asosiy yo'nalishi, ijro etilishi murakkab tartibni qamrab oluvchi institut" [5], kabi umumiy fikrlar ham uchraydi. D.Umarxanovning fikricha bunday tushuncha mavhum bo'lib, ekstraditsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini hamda mazmun-mohiyatini yetarli darajada ifodalab berishga qodir emas [6].

Ekstraditsiya institutini tartibga solishning nazariy va amaliy ahamiyatini oshishi xalqaro va mintaqaviy miqyosda turli xil yangi mexanizmlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, ikki tomonlama ekstraditsiya shartnomalari tarixda ko'p uchramaydi. Ko'p tomonlama ta'sirchan konventsionalardan biri 1957-yilda qabul qilingan "Ekstraditsiya to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" hozirda ham amalda. Yangi imzolanadigan ekstraditsiya to'g'risidagi shartnomalar loyihasini tayyorlash uchun esa, 1990-yilda BMTning "Ekstraditsiya to'g'risidagi namunaviy shartnoma"si tayyorlangan. 2001-yilda BMT nazoratidagi hukumatlararo ekspertlar guruhi tomonidan tayyorlangan "Ekstraditsiya to'g'risidagi Namunaviy shartnomaning qayta tayyorlangan yo'riqnomasi"ni qabul qildi. Ekstraditsiya to'g'risidagi umumiy shartnomalarga qo'shimcha ravishda, ekstraditsiya to'g'risidagi tushunchalar BMTning 2003-yilgi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyasi va 2000-yilgi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi kabi maxsus mavzularga tegishli bo'lgan xalqaro konvensiyalarda ham keltirilgan. Xorijdagi boshqa davlat fuqarolarining huquqiy maqomi, shuningdek, ma'lum jinoiy qilmishni sodir etganlikda gumonlanayotgan, ayblangan yoki sudlangan fuqarolariga nisbatan jinoiy ta'qibni amalga oshirish tartibi xorijiy davlatlarning jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorligiga oid milliy qonunchiligi va ushbu davlat bilan ikkinchi davlat o'rtasidagi xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi. Aksariyat, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik munosabatlarini

tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarda sohaga oid jinoyat ish yuritishning protsessual tartibi belgilanmasdan, davlatlar milliy qonunchiligiga havola qilinadi. Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning protsessual tartibi mukammal darajada milliy qonunchilikda mustahkamlanishi ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlikning samaradorligini yanada oshiradi.

BMTning Jinoyatchilik va giyohvandlik bo'yicha boshqarmasi tomonidan o'zaro huquqiy yordam va ekstraditsiya masalalariga bag'ishlangan ko'rsatmalarida ekstraditsiya masalasi bo'yicha mavjud shartnomalar yoki o'zarolik prinsipi asosida boshqa bir davlatga murojaat qilishda ushbu davlatning ekstraditsiyaga oid milliy qonunchiligining quyidagi jihatlarini o'rganish tavsiya qilinadi:

1. Shaxsni ushlab, qamoqqa olish va topshirishning protsessual tartibi;
2. Ekstraditsiya haqidagi so'rovlarni ijro etish harakatlari;
3. Ekstraditsiya haqidagi so'rovlarni rad etish asoslari, rad etishni istisno qiluvchi holatlar;
4. Ijro hokimiyati, sud hokimiyati qanday mazmunda qarorlar qabul qiladi;
5. Ekstraditsiya masalasida qabul qilinadigan qarorlar qanday isbotlash mezonlariga asoslanadi va qay darajada;
6. Qidiruvdagi shaxs ushlanganidan so'ng ekstraditsiya borasida qaror qabul qilingunga qadar qamoqda saqlanadimi, agar qamoqda saqlanmasa, uning yashirinmasligi uchun qanday choralar qo'llaniladi;
7. Ekstraditsiya jarayonining qaysi bosqichida, qanday turdagi qarorlarga shikoyat qilish mumkin, shikoyatlarni ko'rib chiqishning protsessual tartibi qanday;
8. Ekstraditsiya haqidagi so'rov kelib tushgan paytdan boshlab, shaxsni ekstraditsiya qilish yoki ekstraditsiya haqidagi so'rovni rad qilish haqidagi yakuniy qaror qabul qilishgacha qancha vaqt sarflanadi [7].

Davlatlar ekstraditsiya qilishda avval mazkur shaxsni ekstraditsiya qilinishi imkoniyatiga e'tibor qaratadilar. Chunki, ekstraditsiyani amalga oshirishdan avval bir qancha holat va cheklovlar mavjud bo'lishi mumkinligi va ular bugungi kunda mavjud imzolangan yoki ratifikatsiya qilingan shartnomalarga yoki davlatlarning o'zaro munosabatlariga bog'liqdir.

Masalan, sodir etilgan jinoyat uchun ekstraditsiya qilish imkoni mavjud bo'lgan taqdirda ham, ikkala davlat ham mazkur jinoyatni jinoyat sifatida tan olinishi muammosi bilan ham uning ekstraditsiyasi rad etilishi mumkin. Ko'pincha ekstraditsiya, sodir etilgan jinoyat uchun kamida bir yillik ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq jazosiga hukm etilishi mumkin bo'lmasa rad etilishi mumkin. Mazkur holatlar esa, ekstraditsiyaga oid shartnomalarda belgilab beriladi. Shunday ekan, ekstraditsiya shartnomasida ko'rsatilgan jinoyatlar uchun ekstraditsiya qilish majburiyati kelib chiqadi. Mazkur majburiyat so'rovnoma bilan murojaat qilgan davlatga nisbatan so'rovnoman olishi bilan paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorligiga oid bir qator ikki tomonlama va qo'p tomonlama shartnomalarning faol ishtirokchisiga aylandi. Ekstraditsiya institutining O'zbekiston Respublikasida shakllanishi va rivojlanishi bugungi kunda jinoyat-protsessual qonunchilik bilan bevosita bog'liq. Mazkur yo'nalishdagi asosiy yutuq sifatida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-

huquq sohasidagi islohotlari jarayonida O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik sohasining joriy etilishi bo'ldi.

Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro xamkorlikning huquqiy mehanizmi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 28-sentyabrdagi O'RQ-262-sonli Qonuni bilan jinoyat-protsessual qonunchiligida o'z aksini topdi. O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik masalasi so'nggi yillarda mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritilgan jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning alohida yo'nalishi bo'lib, sohaga oid protsessual qonun talablarini qo'llash bilan bog'liq sud-tergov amaliyotidagi muammolar, milliy qonunchilikka huquqiy yordamning yangi turlarini joriy etish masalalari o'zining to'liq yechimini topgan deyish qiyin. Jumladan, xalqaro va milliy huquq normalarini qamrab oluvchi hamda bevosita inson huquq va erkinliklariga ta'sir etuvchi huquqiy institut sifatida ekstraditsiyaning huquqiy tabiati uni tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquq normalari o'zaro munosabatiga oid muammolar yechimining murakkabligi bilan izohlanadi. Xususan, garchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida xalqaro huquq normalarining ustuvorligi e'tirof etilgan bo'lsa-da, bu umumiy tUSDagi qoida bo'lib, uning ustida nazariy-huquqiy jihatdan bosh qotirilganda ayrim muammolar, ya'ni ekstraditsiyaga oid xalqaro-huquqiy normalarni O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimiga joriy etish mexanizmini belgilash; davlat huquqiy tizimida amal qiluvchi huquqiy normalar ierarxiyasi xususidagi masalani yechish muammolari mavjudligini namoyon etadi.

Ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning mustaqil va teng huquqli subyekti sifatida bugungi kunda ko'plab davlatlar bilan mazkur masalaga taalluqli ikki tomonlama shartnomalar imzolagan. Xususan, bugungi kunda O'zbekiston Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Eron va Pokiston Islom Respublikasi, Tojikiston, Koreya, Bolgariya, Birlashgan Arab Amirligi hamda Afg'oniston Islom Respublikalari bilan ekstraditsiyaga oid ikki tomonlama shartnomalar imzolagan.

Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik, o'zining mazmuniga ko'ra, amaldagi xalqaro huquq me'yorlari va milliy qonunchilik asosida kelishilgan harakatlarni, dunyo hamjamiyati yoki bir necha davlatlarning manfaatlariga daxldor va ishtirok etayotgan davlatlarning o'zaro yordami asosida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatning oldini olish, jinoyatni ochish, jinoyat sodir etilishini to'xtatish, tergov qilish va jinoyat ishlarini ko'rib chiqish uchun sudga taqdim etish, shuningdek, huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish va jazoni ijro etish harakatlarini o'z ichiga oladi.

Qayd etish o'rinliki, mamlakatimizga ekstraditsiya masalalarida xalqaro hamkorlikning faol a'zosidir. Jumladan, mazkur yo'nalishga oid so'rovnomalar kelib tushmoqda. Xususan, 2014-yilda mazkur so'rovnomalarni 100% deb olinsa, 2015-yilda 0,8%ga oshgan, 2016-yilga kelib esa, aksincha 6%ga tushganligi davlatlar o'rtasidagi ekstraditsiya bo'yicha xalqaro hamkorlik jinoyatchilikni oldini olish borasida izchillik bilan olib borilmayotganligidan dalolat beradi. Mazkur davr orasida davlatlarning murojaatlari barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, yiliga o'rtacha 300 ta so'rovnomalar qabul qilingan. Shulardan, 83% Rossiya Federatsiyasidan, 12% Qozog'iston Respublikasidan, 0,8% Ukrainadan, 0,7% Tojikiston, Turkiya va Birlashgan Arab Amirligidan, 0,4% esa, Qirg'iziston va Ozarbayjon davlatlaridan yuborilgan. Ko'rib turganimizdek, ekstraditsiya masalasida O'zbekiston bilan uzviy aloqa o'rnatgan davlatlar asosan MDH davlatlaridir.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi tomonidan xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlariga xalqaro hamkorlik bo'yicha, ayniqsa jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlab berish borasida yuborilayotgan so'rovnomalarning soni ortib borayotganligini quyidagi tahlilda ham ko'rish mumkin. 2010 - 2016 yillar orasidagi yuborilgan so'rovnomalarning tahlili natijasida bir qancha tendensiyani aniqlash mumkin.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasiga ekstraditsiya materiallarini boshqa davlatlarga nisbatan ko'proq yuborganligini ko'rish mumkin. Aniqrog'i, 2016-yilda yuborilgan ekstraditsiya materiallarining soni 187 ta (Rossiya) va 36 ta (Qozog'iston) bo'lib, bu o'sha yilda boshqa xorijiy O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi materiallari, 2017-yil yanvar oyi holatiga davlatlarga yuborilgan materiallarga nisbatan 4 baravar ko'pdir. Bu esa, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi tomonidan yuborilgan murojaatlarning o'sish tendentsiyasini ortganligi, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining aksariyat fuqarolari (qonuniy yoki noqonuniy migrantlari) Rossiya Federatsiyasi (2 milliondan ortiq) va Qozog'iston Respublikasi (47,1%) hududlarida istiqomat qilayotgan va bu ularning mazkur hududlarda jinoyat sodir etib O'zbekiston Respublikasiga qochishi yoki aksincha, O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etib jazodan qochayotgan jinoyatchi qo'shni davlat orqali boshqa hududlarga o'tish ehtimoli mavjudligi yuzasidan ekstraditsiya bo'yicha xalqaro hamkorlik masalalari bu davlatlar bilan izchil davom etishini anglatadi va ikki tomonlama o'zaro hamkorlik shartnomasini imzolash zarurati kelib chiqqanligidan dalolat beradi.

Lekin, O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi bilan ekstraditsiya bo'yicha xalqaro hamkorlikni 1993-yilgi Minsk konvensiyasi asosida amalga oshiradi. D.Umarxanovanning fikricha [8], ekstraditsiya bo'yicha xalqaro hamkorlik masalasini yanada takomillashtirish, shu sohaga oid hamkorlik shakllarni kengaytirish, davom ettirish va tegishli natijalarga erishish maqsadida ikki tomonlama shartnomani tuzish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ikki tomonlama shartnomalarda davlatlar o'rtasidagi ekstraditsiya bo'yicha xalqaro hamkorlikning tashkiliy-huquqiy mexanizmini aniq va maqbul yo'llarini, ya'ni muddatlarni aniqlashtirish, o'z fuqarolarini yoki siyosiy jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlab berish, rad etish asoslarini va ekstraditsiya qilinishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni belgilab olish nazarda tutiladi.

Shu o'rinda aniq misollarga murojaat etib o'tsak. Xususan, 2017-yil aprel oyida Qrim Respublikasi Prokuraturasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi tergov organlaridan yashiringan hamda xalqaro qidiruvda bo'lgan fuqarosi Kamoliddin Shamsutdinovga nisbatan ekstraditsion tekshiruv o'tkazdi. Mazkur shaxs O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167-moddasining 2-qism «a, b, v, g» bndlari, 3-qism «a» bandi (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish) hamda 205-modda 1-qism «a» bandining 2 qismiga (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) ko'ra jinoyat sodir etishga ayblanayotganligi aniqlangan. Shamsutdinov bank boshqaruvchisi lavozimida ishlash jarayonida bank mulkini rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilgan hamda mansab vakolatini suiiste'mol qilishi natijasida juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan. Ekstraditsiya tekshiruvi natijasida Kamoliddin Shamsutdinovni ekstraditsiya qilishni rad etish uchun asoslar mavjud bo'lmaganligi sababli O'zbekiston Respublikasining so'rovnomasini qanoatlantirish to'g'risida Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuraturasi qaror chiqardi [9].

Bundan tashqari, bugungi kunda dolzarb bo'lgan kiberjinoyatlar, terrorizm, odam savdosi muammolari davlatlarni tashvishga solayotgan jinoyatlar qatoriga kiradi. Aynan mazkur jinoyatlar turiga nisbatan qarshi kurash va bu borada xalqaro hamkorlikni tizimli bo'lishi O'zbekiston Respublikasida ham olib borilayotgani quyidagi aniq misollarda ko'rish ham mumkin. 2016-yil mart oyida odam savdosi jinoyatini sodir etganligida ayblangan O'zbekiston fuqarosi Gulshoda Juraboeva ekstraditsiya qilingan. U 2008-yilda jinoyat ishtirokchilari bilan birga uch nafar vatandoshlarini Rossiya Federatsiyasida ishga joylashtirish maqsadida olib ketgan. Ularning pasportlarini olib qo'yib, haq to'lamasdan majburiy ishlatgan. Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuraturasi qaror asosida u ushlab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi xorijiy davlatlarning tegishli muassasalariga O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan shaxsni ekstraditsiya qilish to'g'risida, basharti unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan yoki ayblov hukmi chiqarilgan bo'lsa, xalqaro shartnomalar va bitimlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda so'rovnoma bilan murojaat etadi.

Ekstraditsiya to'g'risidagi so'rovnoma, qoida tariqasida:

1) so'rov yuborayotgan organning nomi;

2) o'ziga nisbatan so'rov yuborilayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning tug'ilgan sanasi va joyi, fuqaroligi, yashash joyi yoki turgan joyi haqidagi ma'lumotlar va uning shaxsi haqidagi boshqa ma'lumotlar, shuningdek imkoni boricha tashqi qiyofasi tavsifi, fotosurati va shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa materiallar;

3) o'ziga nisbatan so'rov yuborilayotgan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatning haqiqiy holatlari bayoni va tavsifi, shu jumladan u tomonidan yetkazilgan zararning miqdori haqidagi ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qilmish jinoyat deb e'tirof etilishiga asos bo'ladigan tegishli moddasi matni;

4) shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror yoxud hukm chiqarilgan joy va sana to'g'risidagi, shuningdek hukm qonuniy kuchga kirganligi haqidagi ma'lumotlar [10].

Fikrimizcha, mazkur hujjatlar qatoriga xalqaro jinoyat sodir qilgan hollarda universal yurisdiksiya prinsipini qo'llanilishi masalasi, shartnoma mavjud bo'lmagan holatlarda o'zarolik prinsipining ishlash mexanizmi, sodir etilgan jinoyat yuzasidan o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aniq shakllar hamda xorijiy davlat tomonidan chiqarilgan hukmni tan olish masalalarini ham kiritish maqsadga muvofiq. Chunki, jinoyat sodir etgan shaxsni ekstraditsiyasiga bog'liq bo'lgan barcha protsessual harakatlarni tartibga soluvchi qonun qoidalar va shundan kelib chiqadigan protsessual hujjatlar aniq, tushunarli va rad etilishi uchun asos bo'lmasligi lozim. So'rovnomaning qabul qilgan davlat milliy qonunchilikni o'rganishida tushunmovchilikka yoki noaniqliklarga uchramasligi davlatlararo munosabatlarni yanada samarali olib borishiga sabab bo'ladi.

Shaxsni ekstraditsiya qilish to'g'risidagi so'rovnomaga hukmning yoki uni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqidagi qarorning nusxasi ilova qilinadi. Agarda:

1) ushlab berilishi talab qilinayotgan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lsa va O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar bilan imzolagan shartnomalar va bitimlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa;

2) jinoyat O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan bo'lsa;

3) jinoyat sodir etgani uchun ushlab berilishi talab qilinayotgan shaxsga nisbatan o'sha jinoyati bo'yicha hukm chiqarilgan va bu hukm qonuniy kuchga kirgan yoki shu ayblov bo'yicha jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lsa;

4) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bo'yicha kuchini yo'qotish muddati sababli yoki boshqa qonuniy asosga ko'ra ish qo'zg'atilishi yoki hukm ijro etilishi mumkin bo'lmasa;

5) ushlab berish to'g'risidagi talabnomaga asos bo'lgan qilmish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bo'yicha jinoyat hisoblanmasa, shaxsni o'zga davlatga ushlab berishga yo'l qo'yilmaydi [11].

Shuningdek, mamlakatimizda 2004-yil 23-martda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati hamkorligida "Xalqaro qidiruvdagi ushlangan shaxslarni xorijiy davlatlarga berish va xorijdan keltirish (ekstraditsiya qilish) yuzasidan ishlarni tashkil etish to'g'risida" qo'shma yo'riqnomasi qabul qilingan. Mazkur hujjatda qidiruvdagi shaxslarni ushlab berish to'g'risidagi so'rovnoma haqida so'z boradi, vaholanki, O'zR JPKda bunday hollarda so'rov yuborish ko'zda tutilgan (592-modda). Shu nuqtai nazardan ushbu hujjatni JPK talablariga moslagan holda o'zgartirish maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash joizki, ushbu hujjatda bu boradagi ayrim munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar mustahkamlangan. Chunonchi, unda qidiruvdagi shaxsni berish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan tasdiqlanishi (birinchi qism 1-bandi) belgilangan.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan qidiralayotgan shaxs O'zbekiston Respublikasi hududida ushlanganida, bu shaxsni ushlangan organ:

a) 24 soat ichida aloqa vositalari orqali belgilangan shaklda IIV va Bosh prokuraturaga yuqori idoralari orqali xabar yuborishi va qidiruv tashabbuskoriga shaxsning ushlanganligi to'g'risida xabar berishi va uni qamoqqa olish to'g'risidagi hujjat nusxasini talab qilishi;

b) qidiruvdagi shaxs ushlanganidan so'ng uni ushlab berish (ekstraditsiya qilish) to'g'risidagi so'rovnoma kelib tushmagan hollarda, qidiruv tashabbuskori va nazorat qiluvchi organga takror xabar yuborib, tegishli tuman-shahar prokurori va IIB boshlig'ini xabardor qilib, yuqori idoralari orqali Bosh prokuratura bilan kelishilgan ravishda ushlangan shaxsni ozod qilish masalasini hal etishi lozim (birinchi qism 2-bandi) [12]

Qidiruvdagi shaxs ushlangan kunga qadar uning qilmishi ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan bo'lsa, JPKning talablariga mos ravishda, jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi masala hal etilib, uch kunlik muddatga ishni tugatish to'g'risidagi qaror nusxasi yuqori idoralar orqali Respublika Bosh prokuraturasiga va tegishliligi bo'yicha IIV yoki DXXga yuborilishi lozim.

Qidiruvdagi shaxs ushlanganidan so'ng, unga nisbatan "Amnistiya to'g'risida"gi farmon qo'llanilishi lozim bo'lsa, bu haqda shaxs ushlangan davlatga alohida topshiriq tayyorlanib, uni yuborish uchun o'n kunlik muddatga yuqori idoralar orqali Respublika Bosh prokuraturasiga taqdim etilishi shart (ikkinchi qism 5-bandi).

Yuqoridagi qoidalardan tashqari, xorijiy davlatga ekstraditsiya qilish to'g'risidagi talabnoma bilan murojaat etishda O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari ushbu davlatning qaysi huquq tizimiga mansubligiga e'tibor berishlari o'rinli. Zotan, bu mazkur

talabnomaga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar ko'lamini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, yevropa-kontinental huquq tizimiga mansub davlatlar uchun talabnomaning xalqaro-huquqiy hujjatlar va o'zaro tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan talablarga mosligi kifoya bo'lsa; anglo-sakson huquq tizimiga oid mamlakatlarda barcha qo'lga kiritilgan dalillarni aniq va ravshan bayon etish hamda tegishli protsessual hujjatlardan (ma'lumotnoma, tushuntirish xati, bayonnoma, qaror va h.k.) nusxalar taqdim etish zarur bo'ladi.

Bu borada ayniqsa, ekstraditsiya sohasida xalqaro shartnomaviy-huquqiy amaliyotni birxillashtirish (unifikatsiyalash) maqsadida ekstraditsiya to'g'risida shartnoma imzolayotgan davlatlar BMTning "Ushlab berish to'g'risidagi namunaviy shartnomasi"dan kelib chiqishlari tavsiya etiladi. Zero, ushbu Namunaviy shartnoma bu sohada davlatlar uchun keng zamin hozirlaydi: davlatlarni ushlab berish masalalari yuzasidan yanada keng qamrovli hamkorliklarini, ya'ni muzokaralar olib borish, ikki va ko'p tomonlama shartnomalar imzolash, shuningdek boshqacha kelishuvlarga erishish bo'yicha faoliyatlarini ta'minlaydi. Mazkur Namunaviy shartnoma qabul qilinganiga ko'p yillar o'tgan bo'lsa ham, ushlab berish sohasidagi yangi tendentsiyalar (soddalashtirilgan ekstraditsiya, so'rovnomalar bo'yicha qaror, vaqtincha ushlab turish, uchinchi davlatga ushlab berish, o'z fuqarosiga nisbatan amalga oshiradigan harakatlar) hamda ushbu sohada to'plangan tajribani inobatga olgan holda transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi so'nggi o'zgarishlarni ifodalaydi.

Mamlakatimizda garchi bu haqda shartnoma tuzilmagan bo'lsa-da, ekstraditsiyani o'zarolik prinsipi asosida amalga oshirish mumkinligi to'g'risidagi qoidani mustahkamlash ham ekstraditsiya sohasida davlatlar hamkorligining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv davlatlarni mazkur masalada yanada hamjihatligini ta'minlaydi, ekstraditsiya amalga oshirilish holatlarini kengaytiradi.

Bugungi kunda jinoyatchilikning keskin rivojlanayotganligini inobatga olgan holda ekstraditsiyani davlatlararo doimiy hamkorlik jarayonining ajralmas qismiga ajralishini ta'minlash hamda uning nafaqat og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar, balki uncha og'ir bo'lmagan boshqa tur jinoyatlar uchun ham qo'llashni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Bu ayniqsa, borgan sayin ko'proq shaxslar jinoyat sodir etishgach, jazodan qutilish, ayrim hollarda esa, jinoiy faoliyatni davom ettirish maqsadida boshqa davlat hududida panoh topishga harakat qilayotganliklari tufayli yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ekstraditsiyaga oid munosabatlarni kengaytirish va rivojlantirish davlatlarning jinoyatchilikka qarshi amalga oshirayotgan choralarining ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu sohadagi davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishda o'zaro tajriba almashish ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi JPKda ekstraditsiyaga oid ayrim protsessual qoidalar o'z aksini topgan. Biroq, ushbu qoidalar mazkur institutni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan barcha holatlarni qamrab olishga qodir emas. Zero, milliy qonunchilikda boshqa davlat bilan shartnoma tuzilmagan holda ham ushbu ikki davlat o'rtasida huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun asos bo'luvchi o'zarolik printsipining ishlash mexanizmi, amaldagi qonunchilikda o'z aksini topmagan jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik qilinmaydigan holatlar, ekstraditsiya qilinayotgan shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatlash, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshiruvchi

davlat organlarining ularning vakolatlari va h.k. holatlar aniq va batafsil tartibga solinishi lozim.

Bu esa, o'z navbatida O'zbekistonning xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashdagi faoliyatiga rahna soladi hamda qator munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha qonunchilik bo'shlig'ini yuzaga keltiradi. Natijada, muqarrar ravishda davlatlarning jinoyat ish yurituvi borasidagi hamkorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, bu borada xalqaro hamkorlik uzluksiz rivojlanib borayotgan bir sharoitda ekstraditsiyaga oid milliy qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Shu asnoda xalqaro hamkorlikda dalillar maqbulligi masalalarida to'xtaladigan bo'lsak, bugungi texnologiyaga asoslangan jamiyatda raqamli qurilmalar va onlayn platformalarning keng tarqalganligi tergov, fuqarolik ishlari va kiberxavfsizlik intsidentlari paytida to'plangan raqamli dalillarning ponentsial o'sishiga olib keldi. Raqamli dalillarni to'g'ri ko'rib chiqish va tahlil qilish, faktlarni aniqlash, sud jarayonining shaffofligini ta'minlash va fuqaroning shaxsiy daxlsizlik huquqlarini himoyalashda muhim rol o'ynaydi.

Biroq, raqamli sud-tibbiy ekspertizalarida yagona tartibga solingan, ya'ni standartlashtirilgan protseduralar va ko'rsatmalarning yo'qligi amaliyotda nomuvofiqliklarga, jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlikdagi qiyinchiliklarga va dalillarning maqbulligi va ularning qabul qilinishi bilan bog'liq muammolarga olib kelmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (International Organization for Standardization) raqamli dalillarni bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar berishga qaratilgan ISO 27037 standartini ishlab chiqdi.

ISO standartlari va ularning ahamiyati. ISO mustaqil, nodavlat xalqaro tashkilot bo'lib, turli sohalarda ixtiyoriy xalqaro standartlarni ishlab chiqadi va nashr etadi. ISO standartlari global miqyosda keng e'tirof etilgan va qabul qilingan bo'lib, izchillik, o'zaro muvofiqlik va sifatni rag'batlantiradigan ko'rsatmalar, spetsifikatsiyalar va eng yaxshi amaliyotlarni taqdim etadi. ISO 27037 raqamli sud ekspertizasiga alohida e'tibor qaratadi va raqamli dalillarni to'plash, saqlash va tahlil qilish bilan bog'liq muammolarni hal qiladi.

ISO 27037 "Raqamli dalillarni aniqlash, to'plash, olish va saqlash bo'yicha ko'rsatmalar" birinchi marta 2012-yilda nashr etilgan. Standart sud ekspertizasi jarayonida raqamli dalillar bilan ishlashning eng yaxshi amaliyotlari va tartiblari bo'yicha ko'rsatmalar berishga qaratilgan. ISO 27037 sud jarayonlarida raqamli dalillarning yaxlitligi, haqiqiyli va qabul qilinishini, saqlash muhimligini ta'kidlaydi.

Qo'llash doirasi va maqsadi. ISO 27037 raqamli sud-tibbiyot ekspertizasi jarayonida ishtirok etuvchi turli manfaatdor tomonlarga, shu jumladan sud ekspertlari, tergovchilar, yuridik mutaxassislar va raqamli dalillar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi. Standart raqamli dalillarni aniqlash, to'plash, olish, saqlash, tekshirish, tahlil qilish, sharhlash, hujjatlashtirish, hisobot berish va taqdim etishni o'z ichiga oladi.

ISO 27037 bir nechta bandlardan iborat bo'lib, ularning har biri raqamli sud ekspertizasi jarayonining o'ziga xos jihatlariga qaratilgan. Standart raqamli dalillarni aniqlash va to'plash, ularni saqlash, tekshirish, tahlil qilish, sharhlash, hujjatlashtirish, hisobot berish va taqdim etish bo'yicha ko'rsatmalarni belgilaydi..

ISO 27037 standartidagi asosiy tushunchalar:

Raqamli dalillar

Raqamli dalillar raqamli shaklda saqlangan yoki uzatiladigan har qanday ma'lumotni anglatadi, bu tergov, huquqiy nizo yoki kiberxavfsizlik hodisasiga tegishli bo'lishi mumkin. U kompyuterlar, mobil qurilmalar, tarmoqlar, ijtimoiy media va bulut saqlash xizmatlari kabi turli manbalardan olingan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Raqamli dalillar faktlarni aniqlash, da'volarni qo'llab-quvvatlash yoki rad etish va qaror qabul qilish jarayonlarini osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Raqamli sud ekspertizasi

Raqamli sud ekspertizasi raqamli dalillarni to'plash, saqlash, tahlil qilish va taqdim etishning ilmiy jarayoni bo'lib, ularning yaxlitligi va maqbulligini saqlaydi. Bu tergov yoki huquqiy maqsadlar uchun raqamli ma'lumotlarni olish, sharhlash va qayta qurish uchun maxsus texnikalar, vositalar va metodologiyalarni qo'llashni o'z ichiga oladi.

Sud ekspertizasi jarayoni

ISO 27037 standartida ko'rsatilganidek, sud-tibbiyot jarayoni raqamli dalillarni tizimli va tizimli qayta ishlashga qaratilgan bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi. Jarayon odatda identifikatsiya qilish, to'plash, saqlash, tekshirish, tahlil qilish, sharhlash, hujjatlashtirish, hisobot berish va dalillarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Standartlashtirilgan sud ekspertizasi jarayoniga rioya qilish dalillarning izchilligi, shaffofligi va ishonchliligini ta'minlashga yordam beradi.

ISO 27037 raqamli dalillarni identifikatsiyalash va yig'ish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. U qurilmalar, saqlash vositalari yoki tarmoq jurnallari kabi potentsial dalillar manbalarini to'g'ri aniqlash va hujjatlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Standart dalillarni to'plash uchun tegishli vositalar va usullarni o'zgartirish yoki zararlanish xavfini minimallashtirishni tavsiya qiladi.

Raqamli dalillarning saqlanishi ularning yaxlitligini saqlash va sud jarayonlarida qabul qilinishini ta'minlash uchun juda muhimdir. ISO 27037 dalillarni xavfsiz saqlash, qayta ishlash va himoya qilish uchun tegishli tartiblarni o'rnatish zarurligini ta'kidlaydi. U saqlash jarayonining batafsil qaydini, shu jumladan saqlash muhiti va kirishni boshqarish vositalari haqidagi ma'lumotlarni saqlash muhimligini ta'kidlaydi.

Ekspertiza bosqichi tegishli sud-tibbiy vositalar va usullardan foydalangan holda raqamli dalillarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. ISO 27037 dalillarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish yoki yo'q qilishning oldini olish uchun nazorat qilinadigan va xavfsiz muhitda imtihonlarni o'tkazish muhimligini ta'kidlaydi. Standart ekspertiza jarayonida dalillarning yaxlitligini tekshirish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

ISO 27037 shuningdek, raqamli dalillarni tahlil qilish va talqin qilish bo'yicha ko'rsatmalarni belgilaydi. Unda malakali sud-tibbiyot ekspertlari tahlil jarayonida asosli metodologiya va usullarni qo'llash zarurligiga urg'u berilgan. Standart topilmalarning ishonchliligi va takrorlanishini qo'llab-quvvatlash uchun tahlil protseduralarini, shu jumladan foydalanilgan vositalar, algoritmlar va taxminlarni hujjatlashtirishni tavsiya qiladi.

ISO 27037 raqamli sud ekspertizasi jarayonining barcha jihatlarini hujjatlashtirish muhimligini ta'kidlaydi. U amalga oshirilgan harakatlar, foydalanilgan vositalar, olingan natijalar va tergov davomida erishilgan xulosalarni to'g'ri aks ettiruvchi batafsil hujjatlarni yaratish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Standart shuningdek, topilmalarni tushunish va etkazishni osonlashtirish uchun aniq va qisqa hisobotning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Raqamli dalillarni samarali taqdim etish sud jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. ISO 27037 aniq, mantiqiy va tushunarli tarzda dalillarni taqdim etish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. U tegishli kontekstli dalillarni taqdim etish zarurligini ta'kidlaydi, shu jumladan foydalanilgan metodologiya, tahlilning cheklovlari va topilmalar bilan bog'liq har qanday noaniqliklar. Standart shuningdek, tegishli qonun talablariga muvofiq dalillarning maqbulligini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi.

ISO 27037 ning ahamiyati va amaliy qo'llanilishi

Raqamli dalillarning ishonchliligi va yaxlitligini ta'minlash. ISO 27037 sud ekspertizasi jarayonida raqamli dalillarning ishonchliligi va yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri aniqlash, to'plash, saqlash, tekshirish, tahlil qilish va talqin qilish bo'yicha ko'rsatmalar berish orqali standart standartlashtirilgan va izchil amaliyotlardan foydalanishga yordam beradi. Bu raqamli dalillarning ishonchliligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatolar, noto'g'riliklar va nomuvofiqliklarni minimallashtirishga yordam beradi.

Standartlashtirish va izchillik. ISO 27037 raqamli sud ekspertizasi tekshiruvlarida standartlashtirish va izchillikni targ'ib qiladi. Standartda ko'rsatilgan ko'rsatmalarni qabul qilish orqali tashkilotlar va sud-tibbiyot amaliyotchilari xatolar xavfini kamaytiradigan va ularning ishining umumiy sifatini yaxshilaydigan izchil va takrorlanadigan jarayonlarni o'rnatishi mumkin. Standartlashtirish, shuningdek, turli manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi, samarali aloqa va ma'lumot almashish imkonini beradi.

Raqamli dalillarning maqbulligi. Raqamli dalillarning qabul qilinishi sud jarayonlarida muhim muammo hisoblanadi. ISO 27037 raqamli dalillarning sudda qabul qilinishini ta'minlash uchun ularning yaxlitligi va haqiqiylikni saqlash muhimligini ta'kidlaydi. Standartda keltirilgan ko'rsatmalarga rioya qilgan holda, tashkilotlar va sud ekspertlari o'zlarining raqamli dalillarini yuridik tizim tomonidan haqiqiy va ishonchli deb qabul qilish imkoniyatlarini oshirishlari mumkin.

Raqamli sud-tibbiy tekshiruvlar ko'pincha huquqni muhofaza qilish idoralari, sud-tibbiyot laboratoriyalari, yuridik mutaxassislar va kiberxavfsizlik guruhlarini o'z ichiga olgan bir nechta manfaatdor tomonlarni o'z ichiga oladi. ISO 27037 raqamli dalillar bilan ishlash uchun umumiy asos va tilni taqdim etish orqali hamkorlik va o'zaro hamkorlikni targ'ib qiladi. Standartni qabul qilish orqali tashkilotlar birgalikda samarali ishlash, ma'lumot almashish va dalillarni uzluksiz uzatishni osonlashtirish qobiliyatini oshirishi mumkin.

ISO 27037 tashkilot va sud ekspertlariga raqamli dalillar bilan ishlash bilan bog'liq qonuniy va me'yoriy talablarga rioya qilishda yordam beradi. Standartda ko'rsatilgan ko'rsatmalarga rioya qilgan holda, tashkilotlar tegishli qonunlar, qoidalar va sanoatning ilg'or amaliyotlariga muvofiqligini ta'minlab, raqamli sud-tibbiyot jarayonlarida ehtiyotkorlikni ko'rsatishi mumkin.

Bir nechta real misollar ISO 27037 ning amalda qo'llanilishini ta'kidlaydi. Masalan, huquqni muhofaza qilish idoralari raqamli sud-tibbiyot jarayonlarini soddalashtirish, dalillar sifatini oshirish va boshqa idoralar bilan hamkorlikni yaxshilash uchun standart ko'rsatmalaridan muvaffaqiyatli foydalanganlar. Bundan tashqari, fuqarolik ishlari yoki ichki tergov bilan shug'ullanadigan tashkilotlar raqamli dalillarning himoyalanganligi va ishonchliligini ta'minlash uchun ISO 27037 standartini qabul qildilar.

ISO 27037 standartini qo'llashdan olingan muvaffaqiyat hikoyalari va saboqlarini o'rganish qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Ushbu misollar standart ko'rsatmalarini

amalga oshirgan tashkilotlar erishgan ijobiy natijalarni, jumladan samaradorlikni oshirish, dalillar sifatini oshirish va sud jarayonlarida muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini ko'rsatadi. Shuningdek, ular amalga oshirish jarayonida duch keladigan umumiy qiyinchiliklarga oydinlik kiritadilar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradilar.

ISO 27037 raqamli dalillarni boshqarish bo'yicha qimmatli ko'rsatmalar beradi, lekin uni amalga oshirish bilan bog'liq qiyinchiliklar va cheklovlarni tan olish juda muhimdir. Bularga resurs cheklovlari, rivojlanayotgan texnologiyalar, yurisdiksiya masalalari va raqamli sud ekspertizasi sohasidagi yutuqlarni kuzatib borish uchun doimiy o'qitish va ta'lim zarurati kiradi. Ushbu muammolarni tan olish va ularni hal qilish uchun strategiyalarni ishlab chiqish tashkilotlarga ISO 27037 afzalliklarini maksimal darajada oshirishga yordam beradi.

ISO 27037 standartini samarali qabul qilish va joriy etish uchun tashkilotlar aniq yo'l xaritasini ishlab chiqishlari va tegishli resurslarni taqsimlashlari kerak. Bu mavjud jarayonlarni to'liq baholash, kamchiliklarni aniqlash va standart ko'rsatmalariga mos keladigan siyosat va tartiblarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Tashkilotlar, shuningdek, raqamli sud ekspertizasi bilan shug'ullanadigan xodimlarning zarur ko'nikma va bilimlar bilan jihozlanganligini ta'minlash uchun o'qitish va ta'limga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

Raqamli sud ekspertizasi sohasidagi yutuqlardan xabardor bo'lish va ISO 27037 ning samarali qo'llanilishini ta'minlash uchun uzluksiz trening va ta'lim zarur. Tashkilotlar o'zlarining sud ekspertlari, yuridik mutaxassislari va raqamli dalillarni boshqarish bilan bog'liq boshqa manfaatdor tomonlarning malakasini oshirish imkoniyatlariga sarmoya kiritishlari kerak. Bunga taniqli muassasalar va sanoat birlashmalari tomonidan taklif qilinadigan konferentsiyalar, seminarlar va ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlarida qatnashish kiradi.

Texnologiyadagi davom etayotgan yutuqlar, rivojlanayotgan tahdidlar landshafti va rivojlanayotgan texnologiyalar yangi muammolarni moslashtirish va hal qilish uchun standartni talab qiladi. Tashkilotlar va sud-tibbiyot ekspertlari kelajakdagi o'zgarishlar haqida xabardor bo'lishlari va raqamli dalillarni samarali va ishonchli boshqarishni ta'minlash uchun ISO 27037 standartini qabul qilish va joriy etishga ustuvor ahamiyat berishda davom etishlari kerak [13].

Uzluksiz takomillashtirish ISO 27037 standartini joriy etishning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Tashkilotlar fikr-mulohazalarni yig'ish, ish faoliyatini nazorat qilish va raqamli sud-tibbiyot jarayonlarida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash mexanizmlarini yaratishi kerak. Muntazam tekshiruvlar va ko'rib chiqishlar ISO 27037 tomonidan taqdim etilgan ko'rsatmalarga rioya qilinishini va rivojlanayotgan sanoat standartlari va ilg'or amaliyotlarga mos keladigan har qanday zarur tuzatishlar yoki yangilanishlar kiritilishini ta'minlashga yordam beradi.

Raqamli kriminalistika sohasi texnologiya taraqqiyoti, raqamli dalillarning yangi turlari va yuzaga kelayotgan tergov muammolari asosida doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Kelajakdagi tendentsiyalar raqamli sud-tibbiy tahlilda sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnikasidan ko'proq foydalanishni, keng ko'lamlı ma'lumotlar to'plamlari bilan ishlash vositalarini ishlab chiqishni va Internet of Things (IoT) kabi rivojlanayotgan texnologiyalarda raqamli dalillarning ortib borayotgan ahamiyatini o'z ichiga olishi mumkin. va blokcheyn.

Texnologiyaning rivojlanishi bilan tahdid qiluvchilar tomonidan qo'llaniladigan usullar ham o'sib bormoqda. Rivojlanayotgan tahdid landshafti raqamli sud ekspertizasi uchun doimiy moslashish va innovatsiyalarni talab qiladigan yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Kelajakdagi ishlanmalar shifrlangan ma'lumotlarning sud-tibbiy tahlilini, raqamli dalillarning yaxlitligini ta'minlash uchun blokcheyndan foydalanishni va bulutli va virtuallashtirilgan muhitda sud-tibbiyot usullarini qo'llashni o'z ichiga olishi mumkin.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. <https://www.i-policy.org/2011/02/how-cyber-jurisdiction-affects-cybercrime-prosecution.html>
2. Умарханова Дилдора Шарипхановна. Жиноят ишлари бўйича халқаро ҳамкорлик механизмини такомиллаштириш масалалари. Монография / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор, Б.И.Исмаилов. – Тошкент: ТДЮУ, 2020. 268 бет.
3. Sunil Kumar Gupta. Sanctum for the War Criminal: Extradition Law and the International Criminal Court // 3 California Criminal Law Review 1 (2000). Available at: <http://www.boalt.org/CCLR/v3/v3guptanf.htm>.
4. Валеев Р.М. Выдача преступников в современном международном праве (некоторые вопросы теории и практики). Монография. – Казан: Изд-во Казанского Университета, 1976. – 127с
5. Georghios M. Piki. The Rome Statute for the International Criminal Court: analysis of the statute, the rules of procedure and evidence, the regulations of the court and supplementary instruments - Martinus Nijhoff Publishers, Leiden, Boston, 2010. – 344p.
6. Умарханова Дилдора Шарипхановна. Жиноят ишлари бўйича халқаро ҳамкорлик механизмини такомиллаштириш масалалари. Монография / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор, Б.И.Исмаилов. – Тошкент: ТДЮУ, 2020. 268 бет.
7. Умарханова Дилдора Шарипхановна. Жиноят ишлари бўйича халқаро ҳамкорлик механизмини такомиллаштириш масалалари. Монография / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор, Б.И.Исмаилов. – Тошкент: ТДЮУ, 2020. 268 бет.
8. Умарханова Дилдора Шарипхановна. Жиноят ишлари бўйича халқаро ҳамкорлик механизмини такомиллаштириш масалалари. Монография / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор, Б.И.Исмаилов. – Тошкент: ТДЮУ, 2020. 268 бет.
9. [http://genproc.gov.ru/smi/news/subjects/news-1183759/;](http://genproc.gov.ru/smi/news/subjects/news-1183759/) <http://ca-news.org/news:1377558?cn-rlp>
10. Умарханова Дилдора Шарипхановна. Жиноят ишлари бўйича халқаро ҳамкорлик механизмини такомиллаштириш масалалари. Монография / Масъул муҳаррир: ю.ф.д., профессор, Б.И.Исмаилов. – Тошкент: ТДЮУ, 2020. 268 бет.
11. Пособие по международно-правовым вопросам (для использования в практической деятельности следственно-оперативных органов). I-II том. Изд. подготовлено под рук. Б.Б.Валиева. – Ташкент: Фафур Фулом, 2009.
12. ISO/IEC 27037:2012 Information technology — Security techniques — Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence.
13. ISO/IEC 27037:2012 Information technology — Security techniques — Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence.